



Maqolni izohlang.

Har mevaning po'chog'i bor,
Har so'zning o'lchovi bor.



Va'da

Xurshid Davron

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniyning nabirasi Mirzo Ulug'bek bolaligidan boshlab zakovat va farosat sohibi bo'lganlar. U kishi ko'p bilimlarni egallab, ustozlarni benihoya hurmat qiluvchi, ustozlari ham uni sevguvchi edilar.



Mirzo Ulugʻbek yosh bola paytida Amir Temur Rum mulkidan olib kelgan bir donishmand unga saboq bergan ekan. Rumlik donishmandning bir odati bor ekan: agar shogirdi biror jumlaning yanglish oʻqisa yoki boshqa bir xatoga yoʻl qoʻysa, boshini koʻtarib unga qarab qoʻyar ekan.

Bir kuni Mirzo Ulugʻbek ustozining oldida bir kitob oʻqir edi. Kitobda “Boʻlgan, uddasidan chiqmagan narsangizni nega vaʼda qilasiz?” degan jumlaning oʻqigach, ustozining boshini koʻtarib, unga bir qarab qoʻyibdi.

Ulugʻbek Mirzo: “Ehtimol, yanglish oʻqigan boʻlsam kerak”, deb jumlaning diqqat bilan qaytadan oʻqibdi. Ammo ustozining bu gal ham boshini koʻtarib, unga qarab qoʻyibdi.

Mirzo Ulugʻbek saboqdan keyin bobosi yoniga kelib:

– Bobojon, ustozimga biror narsa vaʼda qilgan boʻlsangiz, darhol vaʼdangizga vafo qiling, – deb boʻlgan voqeaning Amir Temurga aytib beribdi. Amir Temur nabirasining hikoyasini eshitib:

– Ustozing mendan Rumda qolib ketgan kutubxonasini olib kelishga odam yuborishimni soʻragan, “Bu kitoblar menga emas, nabirangizga kerakdur”, – degan edi. Men odam yuborishga vaʼda qilgan edim, ammo yodimdan chiqib qolgan edi, – debdi u nabirasining zukkoligidan mamnun boʻlib. Soʻng rumlik donishmandga bergan vaʼdasini darhol bajarishga kirishibdi.



1. Asarni o'qish jarayonida ko'z oldingizda qanday holat gavdalandi? Donishmand qayerlik edi?
2. Donishmandning qanday odati bor ekan?
3. *"Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va'da qilasiz?"* jumlasini qanday tushundingiz?
4. Mirzo Ulug'bek bo'lib o'tgan voqeani kimga so'zlab berdi?
5. Asardan qanday xulosa chiqardingiz?



yanglish – xato
zakovat – aql
uddasidan kelmoq – bajara olmoq
darhol – tezda



- Asardan Amir Temur va Mirzo Ulug'bekning suhbatini o'qing.
- Mirzo Ulug'bek haqida aytilgan gaplarni topib o'qing.
- Hikoya qahramoniga ta'rif bering.
- Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
- O'rganilgan mavzu yuzasidan fikringizni ayting hamda savollar tuzing.



Hikoyani o'qing. Mazmunini so'zlashga tayyorlaning.